

This is not registered version of Total Doc Converter

Bir qanir bo'lgan sovinlar yoqib qolgan. Uvonini ayab-ayab bosib, qop sudraydi. Quyosh atrofni ayovsiz kuydirar, agar yana biroz qizdirsa, yangi o'rilgan bug'doyzor yonib ketadigandek ko'rinadi. U nariroqda har qadamda yerga ilinj bilan boqib, boshqoq qidirayotgan akasiga yalindi.

- Aka, akajon, ozgina dam olaylik.

O'n ikki yoshlardagi ozg'in, qarimsiq ko'rinadigan bola ukasiga shunday bechorahol termildiki, bu ishlari shunchalik zarurligi tushunildi. Har boshqoq topganda ko'zlarning yiltirashi davom etdi.

Kir yoqaning issiqda qayishdek qotgani bolaga azob bo'ldi. Har safar egilib-turganda bo'ynini shirillatib sidiradi. Ammo tinim yo'q. Uzoqlarda xuddi o'zlaridek qoraygan odamlar yurishipti. Ularda ham qop bor. Bola boshqoq izlarkan, yana picha terishsa, ketishlarini, uyda onalari, olma daraxtining tagida salqin joy borligini o'ylardi.

Qoplari anchayin tikkayib qolganini ko'rib, tag'in akasiga yolvorddi.

- Jon, aka, o'tiraylik.

Akasi yig'laguday qaradi. Ikkovining ham ko'ziga achchiq ter tushar, yuziga, bilaklariga, bo'yinlariga bug'doy qiltanoqlari yopishgandi. Suv idishdagi oxirgi suvni ukasiga tutdi.

- Manavini ichgin-da, birpas o'tir. Men teraman. Esleysanmi, bu yil qish qanday og'ir o'tdi. Tag'in onamga qiyin bo'ladi.

Bu gapdan keyin u ham o'tirolmadi. Idishni bir ko'tardi, isib qolgan suv tomog'ini kuydirib o'tdi. Ichayotganda akasining yutinganini sezdi. Yana churq etmay qopni sudradi. Endi akasi chidolmadi, ukasiga rahmi keldi.

- Men suvga borib kelaman, ungacha damingni olib tur.

- Mayli.

Akasi ketgach, avval cho'kkaladi, keyin osmonga qarab yotdi. Kaftini ko'ziga yopmoqchi bo'ldi-yu, oftob ko'zini olmayotganini sezib qoldi. Tik boqib yotaverdi. So'ng quyoshning kattalasha boshlaganiga hayron bo'ldi. Qarab yotgani sayin quyosh ulkanlashar, ulkanlashgani sayin qorayib borardi. Oxiri butkul zimiston bo'lib ketdi. Qorong'ulikdan onasi bir qaragandek tuyuldi, keyin akasi, keyin jimir-jimir suv, keyin hech narsa.

Akasi qaytganda u sokin yuz bilan yotardi.

"Uka, suv opkeldim" dedi, indamadi. Suv sepdi, qimir etmadi. So'ng qo'rqa-pisa qaerdandir eshitganini qildi - ukasining ko'kragiga quloq bosdi. Jim-jit.

Akasining yuragiga bolalarcha vahm tushdi: "Shuncha boshqoqni qanday ko'tarib ketaman!"

2002